

“TASDIQLAYMAN”
Yoshlar ishlari agentligi
direktorij o‘rinbosari –
xarid komissiyasi raisi

F.Ablayarov



Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalarida foydalanish uchun
SMS-xabarnoma xizmatini ko‘rsatish yuzasidan

**ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO‘YICHA XARID QILISH
HUJJATI**

Toshkent 2025-yil

VII. BOB. YETKAZIB BERILADIGAN ISH VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARGA NARX VA TEXNIK TALABLAR

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. To'liq nomi: Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalaridan ("Yoshlardaftari.uz", "Yoshlarportali.uz", "Yoshlarforumi.uz", "Yoshlar xizmatlari reyestri", "Yoshfermerlar.uz", "Uzchess.uz" "Qizlar akademiyasi, "Ustoz AI" elektron platformalari va boshqa platformalardan) foydalanuvchilarning SMS-ma'lumotnomma xizmatini ko'rsatish yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash.

1.2. Buyurtmachi: **Yoshlar ishlari agentligi**.

1.3. Xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish bo'yicha eng yaxshi taklif: **Buyurtmachi tomonidan o'tkazilgan tanlash natijalariga ko'ra aniqlanadi**.

1.4. Xizmat (ish)larning maksimal narxi: QQS bilan **1 130 000 000 (bir milliard bir yuz o'ttiz million) so'm**.

1.5. SMS narxi (dona):

- Ucell – **90** so'm;
- Beeline – **80** so'm;
- Mobiuz – **50** so'm;
- Uzmobile – **45** so'm;
- Humans – **45** so'm;
- Perfectum – **45** so'm.

1.6. Umumiy SMS soni (dona):

- Ucell – **5 000 000** (besh million);
- Beeline – **3 500 000** (uch million, besh yuz ming);
- Mobiuz – **3 500 000** (uch million, besh yuz ming);
- Uzmobile – **3 500 000** (uch million, besh yuz ming);
- Humans – **1 000 000** (bir million);
- Perfectum – **500 000** (besh yuz ming).

Jami: 17 000 000 (o'n yetti million) dona.

Bunda, bir aloqa operatorlaridan olinadigan SMSlar soni ko'rsatilgan limitdan oshib ketsa, boshqa aloqa operatoriga belgilangan SMSlar sonidan foydalanish mumkinligi imkoniyati mayjudligi.

1.7. Xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish muddati: **2025-yil 31-dekabr sanasiga qadar**.

1.8. Moliyalashtirish manbalari: **Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan**.

2. Texnik talablar

2. Xizmatning asosiy ish turi:

2.1. Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalaridan ("Yoshlardaftari.uz", "Yoshlarportali.uz", "Yoshlarforumi.uz", "Yoshlar xizmatlari reyestri", "Yoshfermerlar.uz", "Uzchess.uz" "Qizlar akademiyasi, "Ustoz AI" elektron platformalari va boshqa platformalardan) foydalanuvchilarning SMS-ma'lumotnomma xizmati orqali xabardor qilish xizmatini amalga oshirish;

2.2. Bitta kompaniya ko'rinishida xizmatni ko'rsatuvchi kompaniyadan 24 soat davomida texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini olish hamda ushbu xizmat o'z o'rnida barcha O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan mobil operatorlar bilan ish yuritish imkoniyati mayjudligi;

2.3. Buyurtmachining elektron platformalari foydalanuvchilarining so'roviga ko'ra abonentning mobil raqamiga SMS u joylashgan joydan qat'i nazar amalga oshirila olishi zarur. SMS so'rov yuborilgan davrda yetkazib berilmagan taqdirda (abonent xizmat doirasidan tashqari bo'lganida yoki telefon apparat o'chirilgan bo'lsa) abonent xizmat doirasiga kirishi bilan yoki telefon yoqilganidan keyin yetkazib berilishi lozim;

2.4. Yoshlar ishlari agentligiga har bir yuborilgan SMSni holati yuzasidan (yetkazilganligi yoki yetkazilmaganligi) onlayn ravishda ma'lumot olib turishi kerak. Har bir yuborilgan SMS to'g'risida onlayn ravishda ma'lumot ko'rib turish imkoniyati bo'lishi lozim;

- 2.5. Platforma 1 soniyada 50 ta SMSdan 150 ta SMSgacha SMS yuborishi imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim;
- 2.6. Yuborilgan SMSlarda yuboruvchi sifatida “Yoshlar ishlari agentligi” deb ko‘rsatish;
- 2.7. Buyurtmachining uskunalarini lotin harflaridagi sms uzunligi 160 belgidan ko‘proq bo‘lgan taqdirda ikkita SMS qilib jo‘natishi lozim;
- 2.8. Yoshlar Yoshlar ishlari agentligining har bir elektron platformasi orqali yuborilgan SMS soni va hisobotlarini istalgan paytda onlayn ravishda kuzatish imkoniyati bo‘lishi lozim;
- 2.9. Yuborilgan elektron hisob-fakturalarga har bir elektron tizim orqali yuborilgan SMSlarni hisobotini qo‘shib yuborilishi lozim.
- 2.10. Elektron hisob-fakturalar tasdiqlanishidan oldin, buyurtmachi va yetkazib beruvchi tashkilotlar o‘rtasida oylik dalolatnoma shakllantirilishi